MAKTABGACHA VA MAKTAB TA´LIMI VAZIRLIGI

**O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi**
**__________________________ hokimligi maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi**
**____________________ maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tasarrufidagi**
**__-maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘rta guruh tarbiyachisi**
**________________________________ning takomillashtirilgan “Ilk qadam” o‘quv dasturi asosida “Navro‘z bayrami ” mavzusida tashkillangan**

# FAOLIYAT ISHLANMASI

*(Mart oyining 3-haftasi)*

# veb-saytimiz: Zokirjon.com

*Zokirjon.com veb-sayti orqali o‘zingiz uchun kerakli ma’lumotlarni yuklab oling.*

***+99890-530-88-18 nomerga telegramdan yozishingiz yoki telegramdan jek456 izlab telegramga yozishingiz so‘raladi.***

***Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi.***

***Hujjat word variant doc formatda beriladi.***

**O‘rta guruhlarga mart oyi 3-hafta faoliyat ishlanmani to‘liq holda olish uchun telegramdan yozing.**

Telegram kanalimiz:

**@maktabgacha_tt**

**Narxi: 5000**

**To‘lov uchun: HUMO 9860230104973329**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**




## DIQQAT!!!

**Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik sharti bilan olishingiz mumkin.**
**Sizga bu OMONAT qilib beriladi.**
**To‘liq holda olganingizdan so‘ng:**
**Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.**
**Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.**
**Internet veb-saytlarga joylamang.**
**Telegram orqali kanal va gruppalarga tarqatmang.**

**OMONATGA HIYONAT QILMANG.**

**Guruh: O‘rta guruhlar uchun**

***Oy mavzusi: Go‘zal bahor***.

***Hafta mavzusi: Navro‘z bayrami***

Ta’limiv faoliyat maqsadlari:

**Ta’limiy**: tarbiyalanuvchilarning milliy bayramlar haqidagi bilimlarini mustah-kamlash, ularga Navro‘z bayrami haqida tushuncha berish;

**Rivojlantiruvchi:** tarbiyalanuvchilarning so‘z boyligini oshirish, ularning nutqini o‘stirish;

**Tarbiyaviy:** bolalarda jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini shakllantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, Navro‘z bayramiga oid suratlar.




Ta’limiy faoliyatning borishi:

**Tarbiyachi:** - Assalomu alaykum, bolajonlar, bugungi ta’limiy faoliyatimizni she’r bilan boshlamoqchiman.

Navro‘z bu yangi kun demakdir azal,
Eski kundan shaksiz yangi kun afzal.
Shu kun kuy kuylaymiz. 0‘qiymiz g‘azal.
U kelar yangicha rizq-u ro‘z bilan,
Assalom, yoronlar, gul Navro‘z bilan.

Bolalar, barchangizni yaqinlashib kelayotgan Navro‘z bayrami bilan tabriklayman.

Navro‘z bayrami 3 ming yildan buyon nishonlanib kelmoqda. Bu ayyomda juda ko‘plab urf-odatlarni bajaramiz.

Navro‘zda momolarimiz milliy taomlarimizdan sumalak, halim, ko‘k somsa, turli pishiriqlar pishirib, bayram dasturxonini bezay- dilar.

Bolajonlar, Navro‘z bayrami sizning xonadoningizda qanday nishonlanadi?

**1-bola:** - Navro‘z bayramidan bir-ikki kun oldin mahallamizda hammamiz ha-



shar qilamiz. Uylar, hovli va ko‘chalarni tozalaymiz. Bu bayramda bobom va buvimni ko‘rgani mehmonlar kelishadi.

**2-bola:** - Biz esa qarindoshlarimizni ko‘rgani boramiz, sovg‘alar ulashamiz.

**3-bola:** - Bayramda uyimizda katta dasturxon tuzaladi, hamma qo‘shnilarga shirinliklar ulashiladi.

**4-bola:** - Bu bayramda biz ko‘k somsa, ko‘k chuchvaralar pishiramiz.

**5-bola:**- Navro‘z bayramida buvim, bemorlardan xabar olinglar, deb ko‘p aytadilar.

**6-bola:** - Bu bayramda dadam hammamizga sovg‘a olib keladilar.

**7-bola:**- Har yili Navro‘z bayramida qo‘shnilarimiz sumalak va halim tayyorlaydilar.

**Tarbiyachi:** - Bolajonlar, bu bayram juda qadimiy va biz uchun aziz.

“Navro‘z” so‘zi yangi kun degan ma’noni bildiradi. Bu bayramda sayllar tashkil qilinadi, hamma bir-birini yo‘qlaydi. Turli xalq o‘yinlari ham shu bayramda ko‘p o‘ynaladi.

Kelinglar, sizlar bilan tortishmachoq oʻyinini oʻynaymiz. Buning uchun ikki guruhga boʻlinamiz. Men sizlarga arqon beraman. Arqonni qaysi tomon oʻziga tortib ololsa, ana oʻsha tomon gʻolib hisoblanadi.

**(Bolalar tarbiyachi nazoratida tortishmachoq oʻyinini oʻynaydilar.)**

**Tarbiyachi:** - Bolajonlar, endi sizlar bilan soʻz oʻyini oʻynaymiz. Men soʻz aytaman, sizlar esa oʻsha soʻz ishtirokida gap tuzishingiz kerak.

Sumalak -... sumalak bahorda pishiriladi.

Navroʻz-... qadimiy bayram boʻlib, bahorda nishonlanadi.

Varrak - ... bu oʻgʻil bolalarning sevimli oʻyini, varrakni bolalar jon deb uchirishadi.

Bugʻdoy -... sumalakka qoʻshiladi.

Boychechak - ... bahorda ochiladigan gul.

Lola -... qizil rangli gul.

Bayram -... bahorda Navroʻz bayrami nishonlanadi.

**Tarbiyachi:** - Bolajonlar, bugun ta’limiy faoliyatda juda faol qatnashdingiz, sizlarga rahmat.

**Qurish va konstruksiyalash, matematika markazi**





**Faoliyatning borishi:**

1. Namuna bilan tanishish.
2. Qush uyasini ko‘zdan kechirish.
3. Bolalarning mustaqil ishlari.
4. Bolalar ishlari ko‘rgazmasi.
5. Rag‘batlantirish.

**Qo‘shimcha:** hovlidagi qushlarni kuzatish.

**E’tiborga molik jihati:** sarishtalik, ranglarni his etish.

**Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish markazi**

***«Qo‘g‘irchoq sayrda»***

**Maqsad:** bolalar qo‘g‘irchoqlar bilan tanish harakatlarni o‘yin syujetiga ko‘chiradilar, qo‘g‘irchoqlar bilan bo‘lgan o‘yinlarga qiziqish namoyon etadilar.

**Kerakli jihoz va materiallar:** qo‘g‘irchoq, barcha yil faellariga mo‘ljallangan kiyim, shkaf, stul, kolyaska, mashina va qurilish materiallari.

**Faoliyatning borishi:**

1. Muammoli vaziyat (qo‘g‘irchoq sayr qilishni istaydi, birok kiyinishni bilmaydi).
2. Yechim: bolalar qo‘g‘irchoqni ob-havoga mos tarzda kiyintiradilar.
3. Rollarning taqsimlanishi.
4. Syujetning yechishi.
5. Rag‘batlantirish.

**Qo‘shimcha:** «Biz o‘ynayapmiz» tasvirini ko‘zdan kechirish.

**E’tiborga molik jihati:** tanlab olingan rollarni to‘g‘ri bajarish, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish.





**Til va nutq markazi**

«Bahor» mavzusida hikoya tuzish.

Topishmoqlarni topish

**Maqsad:** tarbiyalanuvchilar bahoriy o‘zgarishlarni aniqlaydilar, bog‘lar va tomorqada qanday bahorgi ishlar amalga oshirilishini biladilar, mavzuga doyr topishmoqlarni topa oladilar.

**Kerakli jihoz va materiallar:** syujetli rasm, mavzuga oid o‘yinlar to‘plami, AKT .

**Faoliyatning borishi:**

1. Bahor manzarasi videolavhasi namoyishi.
2. Bahor haqida topishmoqlarni topish.
3. Bahorgi tabiatdagi o‘zgarishlar rasmini ko‘rish (daraxtlarning gullashi, birinchi gullar va maysalar, bahorgi ishlarning amalga oshirilishi, qaldirg‘ochlarning uchib kelishi).
4. «Bahor» mavzusida hikoya tuzish.
5. «Meva va sabzavotlar» ta’limiy o‘yini.

Qo‘shimcha: «Bahorda pishiriladigan taomlar» mavzusida albom tayyorlash.

E’tiborga molik jihati: gaplarni to‘g‘ri tuza olish, boshqa bolalarni tinglay olish.

**Fan va tabiat markazi**

Gul urug‘larini ekish.

Maqsad: bolalar chuqurcha qilib urug‘larni birma-bir eka oladilar. Ekilgan urug‘larga sup quyadilar, ularning o‘nib-o‘sishi uchun zarur sharoitlarni aytib beradilar.

Kerakli jihoz va materiallar: stol, tuproq solingan yashik, cho‘p, urug solingan 2 ta likopcha, suv solingan stakancha, shaffof stakanchaga solingan urug‘, gullayotgan o‘simlik tasvirlangan rasmlar.



**Faoliyatning borishi:**

1. Suhbat: xona gullari.
2. Rasmlarni ko‘zdan kechirish.
3. Urug‘larni ko‘zdan kechirish.
4. «Gulni nomla» ta’limiy o‘yini.
5. «Urug‘ni ekish» amaliy ishi.

Qo‘shimcha: lug‘atni boyitish, ekilgan o‘simliklarni parvarishlash.

E’tiborga molik jihati: urug‘lardan o‘simliklarni mustaqil o‘stirish.

**San’at markazi**

**Loy ishi:** «Uyadagi qushchalar»

**Maqsad:** bolalar tana, boshning shakli va hajmini ifodalagan holda qushni bo‘laklardan yasaydilar, har xil turdagi qushlarni kattaligiga ko‘ra farqlaydilar, bosh, qanot, dum qismlarini to‘g‘ri joylashtiradilar.

**Kerakli jihoz va materiallar:** mavzu asosida namuna, qushlar tasvirlangan rasm va kartochka, salfetkalar.




**Faoliyatning borishi:**

1. «Qushlarning ovozi» audio yozuvini tinglash.
2. Qushlarning tasvirini ko‘zdan kechirish.
3. Namunani kuzatish.
4. Ishni bajarish.
5. Bolalarning ishlari ko‘rgazmasi.

Qo‘shimcha: «Chumchuqlar va avtomobil» harakatli o‘yini.

E’tiborga molik jihati: bolalarda mehr-shavqat hissini tarbiyalash.